

## Eltuzarxon



# Eltuzarxon

(? – 1806)

(1804-1806)

Xiva xoni, **Muhammad Amin** inoqning nabirasi. **Qo'ng'irotlar** sulolasidan. Eltuzar davrida chetdan chaqirilgan soxta xon **Abulg'oz**i taxtdan tushirib, o'ziga **xon** unvonini qabul qiladi (1804 yil). Shundan keyin, qo'ng'irot qabilasi Xiva xonligi taxtini 1804 yilda rasman ham egalladi. Eltuzar 1806 yilda Buxoroga qarshi urush chog'ida halok bo'ladi. Uning buyurigi bilan **Munis Xorazmiy** "*Firdavs ul-iqbol*" asarini yozgan.

2023-11-05 18:31:22